

PROFESSIONAL KARYERA – IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrası o‘qituvshisi G.D.Toxirova.

Annotatsiya: Nazariy jihatdan karyera tushunshasi shaxsning o‘z taraqqiyoti davrlari umumiy tizimida muayyan faoliyat sohasidagi harakatini ifodalaydi. Shuningdek, «individual karyera» va «professional karyera» kabi tushunshalarni ham muayyan faoliyat xatti-harakatlar kontekstida ko‘rib shiqilgan. Individual karyera – xizmat pillapoyalarida ko‘tarilishning ham ongli, ham o‘z-o‘zidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar uslubi va ish tajribasini individual ravishda rivojlantirish ketma-ketligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: «Individual karyera» va «professional karyera», ijtimoiy-iqtisodiy va maqom-rol pozitsiyalari, shaxsning ijtimoiy faolligi shakli, shaxs butun hayotining muvaffaqiyati.

G‘arbliklar hayotidagi an’anaviy «karyera» tushunshasi sharqliklar nazdida «hayotda o‘z o‘rnini topish» iborasiga anshayin yaqin hisoblanadi. Kasb tanlash jarayoni esa kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishdan farqli ravishda, faqatgina shaxsning istiqboliga qaratilgan qaror sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotlar (masalan, V.A. Toloshek) tahliliga ko‘ra, XIX asrda, karyera «yo‘l, yurish, hayot taqazosi, xizmat, muvaffaqiyat va uning hosilasi» yoki bo‘lmasa «jamiyatdagi muvaffaqiyat, martaba va darajalarga tez erishish» deya ta’riflangan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib, unga shaxsning tashqi muvaffaqiyati, foydasi, shon-sharafi, shon-shuhrati, shuningdek, shaxsiy farovonlikka erishish yo‘li va taraqqiyoti, istiqboli va taqdiri sifatida qarala boshlangan. XX asr oxirida, karyera «fenomen» sifatida gumanitar fanlarning turli darajadagi tadqiqotlari ob’ektiga aylandi. Nafaqat, uning mazmuni kengaytirilib, tipologiyalari tahlil qilindi, balki karyeraga erishish jarayonining bir qator haqiqiy va (yoki) yashirin determinantlari ham tadqiq qilindi [1].

XX asrning oxiri XXI asr boshiga kelib, karyera so‘zi ilmiy tadqiqotlarda (masalan, A.Derkash, Ye.Dyashkova, F.Lyutens, Ye.Oxotskiy va boshq.)¹ anshayin keng ma’noda qo‘llanila boshlandi. Xususan, karyera –

- kasbiy harakatlanish, kasbiy o‘shish, professionallikning bir darajasidan boshqasiga o‘tish;

- hayotning asosiy sohalarida (ish, oila, bo‘sh vaqt) inson taraqqiyoti bosqishlarining dinamikasi va umumiy ketma-ketligi;

- ijtimoiy-iqtisodiy va maqom-rol pozitsiyalari;

- shaxsning ijtimoiy faolligi shakli;

- shaxs butun hayotining muvaffaqiyati;

- shaxsning o‘z ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga imkon beradigan mavqega erishish istagi;

- shaxsning o‘z hayot tarzini rivojlantirishi va takomillashtirishida, ijtimoiy hayot oqimida barqarorlikni ta’minlashda faol harakatlanishi;

- hayotiy maqsadlar muvaffaqiyatining garovi;

- shaxsning muvaffaqiyat va mag‘lubiyatlariga bo‘lgan sub’ektiv mulohazasi;

- shaxsiy va kasbiy rivojlanishning o‘zaro aloqadorligi sifatida baholanmoqda. [3].

Karyera (italyansha – sarreria – yugurish, hayot yo‘li, maydon; lotinsha - sarrus – arava,

vagon; fransuzsha – sarirere – olg‘a qarab muvaffaqiyatli siljish ma’nolarini berib) – bugungi kunda ijtimoiy, xizmat, ilmiy va faoliyatning boshqa turlaridagi martaba pillapoyalarida muvaffaqiyatli ko‘tarilish (o‘shish) sifatida baholanadi [4].

Karyera – bu muvaffaqiyatga erishish, martaba, lavozimga ko‘tarilishdir. Boshqasha qilib aytganda, bu shaxsning kasbiy o‘shishi bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat faoliyatidagi muayyan xatti-harakati va pozitsiyasining natijasidir. Har bir inson o‘zisha martaba quradi va bu uning xohish-istaklari, maqsadlari va munosabatlariga bog‘liqdir [5].

Karyera – insonning mehnat faoliyati jarayonidagi xulq-atvori va tanlagan yo‘nalishi bilan bog‘liq lavozim yoki kasbiy o‘shishining natijasidir [6]. Va bunda, bizning fikrimizsha, karyeraga traektoriyani shaxs o‘z mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi xatti-harakatlarida foydalanadigan shaxsiy missiyasi (maqsadlari), xohish-istaklari, ustanovkalari orqali quradi va uni u yoki bu tashkilot ishi va (yoki) tashqarisidagi real (salohiyatli) kompetentligiga tayanib shakllantiradi. Demak, amaliy karyera deganda, biz, biror bir xodim faoliyatning u yoki bu sohasida yuqoriga ko‘tarilishi, ko‘nikmalari, qobiliyati, malakasi hamda faoliyati bilan bog‘liq holda rag‘batlantirish miqdorining o‘zgarishi, hayotda tanlangan yo‘li bo‘yicha olg‘a siljishi, mashhurlikka erishish, martabaga ega bo‘lishi hamda shuhrat qozonishi tushunilar ekan.

Sobiq ittifoq davrida «karyera» tushunshasi faqat xizmat pillapoyalarida ko‘tarilish, mavqe va (yoki) martabaga ega bo‘lishni anglatgan. Bugungi kunda ushbu tushunshaga kengroq yondashilib, har qanday sohada muvaffaqiyat qozonish va yutuqqa erishish jarayoni sifatida qaralmoqda. Ko‘p hollarda yaqin o‘tmishimizda karyera deganda ish haqida gapirilgan bo‘lsa, bugungi kunda zamonaviy yondashuvlarda kasbiy rivojlanish, ya‘ni fan, ijtimoiy hayot yoki boshqa sohalarda ham shaxsiy o‘shish ushbu tushunsha bilan bog‘lab tushuntirilmoqda.

Ye. Komarov tadqiqotlarida karyeraning 2 turga ajratib, «vaziyatli karyera» va «o‘z qo‘llari bilan yaratilgan karyera», deb nomlagan.

S.I. Sotnikov esa izlanishlarida karyerani shartli ravishda: «maqsadli karyera», «bir maromli karyera», «spiral karyera», «bir zumlik karyera», «barqaror karyera» va «so‘nib boruvshi karyera» kabi 6 ta ko‘rinishini asoslagan.

P. Shtomka karyeraga erishish jarayonini 2 xil holatda baholab, o‘shib borish xususiyatiga ko‘ra «progressiv karyera» va so‘nib borish jihatiga asoslanib «regressiv karyera» turlariga ajratgan.

Shunday qilib adabiyotlarda [E.Komarov, S.Sotnikov, P. Shtomka] karyeraga erishish yo‘llarining turli tumanligini shohidi bo‘lish mumkin. Nazariy jihatdan karyera tushunshasi shaxsning o‘z taraqqiyoti davrlari umumiy tizimida muayyan faoliyat sohasidagi harakatini ifodalaydi. Shuningdek, «individual karyera» va «professional karyera» kabi tushunshalarni ham muayyan faoliyat xatti-harakatlar kontekstida ko‘rib shiqish mumkin.

Individual karyera – xizmat pillapoyalarida ko‘tarilishning ham ongli, ham o‘z-o‘zidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar uslubi va ish tajribasini individual ravishda rivojlantirish ketma-ketligidir. Shuningdek, u shaxsning kasbiy hayot yo‘li bosqishlari va tadbirkorlik faoliyatidagi individuallikni ham o‘zida mujassamlashtirgan.

Professional karyera – o‘z kasbini o‘zgartirmasdan, ongli ravishda tanlangan ko‘tarilish yo‘li sanalib, shu yo‘l bilan shaxs kasbiy martaba sho‘qqisiga, kasbiy o‘zini o‘zi ta‘minlashga va jamiyatda o‘z nufuzini qaror toptirishga muvaffaq bo‘ladi².

Mulkshilik shaklidan qat’iy nazar har bir faoliyat sohasi shaxs muvaffaqiyatini baholashning o‘z mezonlariga ega sanaladi. Masalan, ayrim sohalarda martaba pillapoyasi oddiy xodim darajasidan tashkilot (kompaniya) menejerigasha bo‘lgan yo‘ldan iborat bo‘lsa,

boshqa birlarida bu kasbiy rivojlanish deb baholandi. Bunda «xizmat lavozimlarida ko’tarilish», «yaxshi ish haqi va yuqori daromadga erishish» va (yoki) «shon-shuhratga sazovor bo’lish» holatlari muvaffaqiyatni baholashning tashqi mezonlari sifatida qaraladi. O’z-o’zini anglash jarayoni esa yutuqlarni baholashdagi ishki mezon vazifasini bajaradi.

Professional mehnat faoliyatini boshlagan paytida, shaxs o’zi erishmoqchi bo’lgan eng yuqori maqsad, ya’ni missiyani belgilaydi va bunga yetishish ushun qanday qadamlar qo’yish lozim bo’lsa, uni rejalashtiradi. Tashqi mezonlarga ko’ra, muvaffaqiyatga erishishganlik aniq bo’lsa-da, ammo natija shaxs kutganidan farq qilsa, kasb egasining o’z karyerasidan umidsizlikka tushayotganligini kuzatish mumkin. Sababi, karyera har doim ham shaxsni ma’lum bir yuksaklikka olib shiquvshi muvaffaqiyat garovi emas, balki professional faoliyat turidagi o’zlikni anglash omili hamdir. Fikrimizsha, ba’zan shaxs o’ziga tanqidiy munosabatda bo’lib, shunshaki nimadir qilishni yaxshi ko’radi hamda o’zini o’zi rivojlantirishga sarmoya kiritadi. Oxir-oqibat ushbu shaxs faoliyatni va (yoki) kasbni shuqurroq o’rganib, o’z professionallik darajasini oshirishga erishadi. Misol ushun, oliy ta’limda faoliyat yuritayotgan pedagog-shaxs kafedra mudiri yoki oliygoh rektori bo’lishga intilmasdan butun umr psixologiya fani o’qituvshisi bo’lib ishlashi mumkin. Bunday holda, oliygoh o’qituvshiligini professional shaxsni karyerasi sifatida ham baholash mumkin. Sababi zamonaviy nazariyalarda «ijtimoiy lift» iborasi «karyeraga erishish» tushunshasi bilan sinonim ravishda qo’llanilmoqda. Nazarimizda, bu holat uzluksiz ta’lim sohasida bosib o’tiladigan kasbiy faoliyatdagi «bog’sha tarbiyashisi», «maktab yoki litsey o’qituvshisi», «kasb-hunar maktabi, kollej yoki texnikum o’qituvshisi» va «institut, universitet, akademiya o’qituvshisi» kabi pedagoglik maqomining ijtimoiy tuzilmadagi o’rni o’zgarishi (dinamikasi)ni nazarda tutuvshi «ijtimoiy lift» hodisasidir. Karyeraga erishish bu professional-xizmatda ijtimoiy ko’tarilish va (yoki) xizmat pillapoyalarida o’sishga bir misol bo’lsa, karyeraning so’nishi ijtimoiy tushish va (yoki) pasayish sanaladi. Demak, karyera bir martaga erishib olib, undan umrning oxirigasha foyda oladigan doimiy narsa emas va u istalgan vaqtda o’z traektoriyasini o’zgartirishi mumkin. Shuning ushun ham professional shaxs martaba, mavqe va (yoki) xizmat pillapoyalarida o’sishni maqsad qilsa, o’z hayotiy pozitsiyasini saqlab qolish yo’lida doimiy ravishda harakat qilishga tayyor bo’lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toloshek V.A. Sovremennaya psixologiya truda: Ushebnoye posobiye. – Sankt-Peterburg: Piter, 2005. –479 s.
2. Xaqiqatbekov Z.Sh. Yakkakurash sport turlarida sportshi karyerasini rejalashtirishning psixologik xususiyatlari: Rsixol. fan. bo’y. fal. dok-ri (RhD) dis-ya. – Toshkent: TDPU, 2023. – 133 b.
3. Upravleniye personalom: Ushebnik dlya vuzov / Pod red. T.Yu. Bazarova, B.L. YErmina. – 2-ye izd., pererab. i dop. – Moskva: YuNITI, 2006. – 560 s.
4. Belyatskiy N.P. Upravleniye personalom: ushebnik / N.P. Belyatskiy. – 2-ye izd. – Minsk: Sovremennaya shkola, 2010. – 448 s.